

"TASDIQLANGAN"

Boshqaruv raisi

"ANOR BANK" AJ

Akramov Sh.S.

**ANORBANK va eMaktab**  
**tomonidan amalga oshirilayotgan maxsus ijtimoiy loyiha doirasida**  
**"Sizdan besh baholar, bizdan sovg'alar"**  
**SOVRINLI O'YININING O'TKAZISH QOIDALARI**

1. Mazkur Qoidalar:

a) shartnomaning barcha muhim shartlarini o'z ichiga olgan va O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367 va 369-moddalariga muvofiq ommaviy oferta hisoblanadi;

b) ishtirok etish shartlari, G'olibni aniqlash va Sovrinni topshirish tartibi, shuningdek "ANOR BANK" AJ va "Kundalik" MChJ bilan birgalikda o'tkaziladigan "Sizdan besh baholar, bizdan sovg'alar" Sovrinli o'yinini tashkillashtirish va o'tkazishning boshqa muhim shartlarini tavsiflab beradi;

d) **eMaktab** tizimiga ulangan umumta'lim maktablari o'quvchilarini rag'batlantirish va o'qish samaradorligini oshirish, shuningdek, "ANOR BANK" AJ faoliyatini O'zbekiston Respublikasi hududida o'quvchilar va ota-onalar o'rtasida ommalashtirishga qaratilgan "Sizdan besh baholar, bizdan sovg'alar" Sovrinli o'yinini (bundan keyin "Sovrinli o'yin") tashkil etish va o'tkazish tartibini belgilab beradi.

2. Sovrinli o'yin Tashkilotchisi – "ANOR BANK" AJ. (bundan keyin – "Tashkilotchi") (manzil: Toshkent shahri, Mirzo- Ulug'bek tumani, Sayram 5-tor ko'chasi, 4-uy).

Sovrinli o'yin o'tkazish bo'yicha Hamkor – "KUNDALIK" MChJ (bundan keyin – "Hamkor") (hozirda "eMaktab", manzil: Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor prospekti, 42/1).

3. Sovrinli o'yin lotereya yoki boshqa tavakkalchilikka asoslangan o'yin emas, hamda Sovrinli o'yin ishtirokchilari unda ishtirok etish bilan bog'liq hech qanday mulkiy risklarni o'z zimmalariga olmaydilar.

Sovrinli o'yinni o'tkazish tartibi ishtirokchilar tomonidan badal to'lash bilan bog'liq emas va o'yinning sovrin jamg'armasi faqat Tashkilotchi hisobidan shakllantiriladi.

4. Sovrinli o'yin uch bosqichda o'tkaziladi.

Bosqichlarni o'tkazish davri:

a) birinchi bosqich: 2023-yil 3-oktabrdan 10-yanvargacha.

b) ikkinchi bosqich: 2024-yil 11-yanvardan 27-martgacha.

d) uchinchi bosqich: 2024-yil 28-martdan 25-maygacha.

Uchinchi bosqich ikki qismiga bo'linadi:

- birinchi qism 28-martdan 30-aprelga qadar bo'lib o'tadi;

- ikkinchi qism 1-maydan 25-mayga qadar bo'lib o'tadi.

4.1. Tashkilotchi va Hamkorning qaroriga ko'ra, o'yinning uchinchi bosqichining ikkinchi qismi 5-iyungacha uzaytiriladi.

5. Har bir bosqich natijalariga ko'ra g'oliblarni aniqlash bo'yicha tadbirning aniq sanasi va vaqt Tashkilotchining veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlarida oldindan e'lon qilinadi.

6. Sovrin jamg'armasi va Sovrinli o'yin bilan bog'liq barcha xarajatlar Tashkilotchi hisobidan shakllantiriladi va birinchi bosqichda 100 (yuz) sovrindan iborat.

6.1. Birinchi bosqichning sovrin jamg'armasi 100 ta sovrindan iborat:

- 10 ta Apple iPhone 14 smartfonlari;

- 10 ta Apple iWatch 8 smart soatlari;

- 30 ta Acer Aspire 3 noutbuklari;

- 10 ta Yandex.Stansiya smart kolonkalari;

- 40 ta Samsung Tab A7 Lite planshetlari.

6.2. Ikkinch bosqichning sovrin jamg'armasi 130 ta sovrindan iborat:

- 5 dona Apple iPhone 15 smartfonlari;
- 5 dona PlayStation 5 o'yin pristavkasi;
- 40 dona Apple Watch SE smartsoatlari;
- 40 dona Samsung A9 planshetlari;
- 40 dona Airpods 2.1. simsiz qulqchinlar.

7. Uchinchi bosqichning sovrin jamg'armasi 130 ta sovrindan iborat:

- 5 dona Apple iPhone 15 smartfonlari;
- 5 dona PlayStation 5 o'yin pristavkasi;
- 40 dona Apple Watch SE smartsoatlari;
- 40 dona Samsung A9 planshetlari;
- 40 dona Airpods 2.1. simsiz qulqchinlar.

Uchinchi bosqich ikkita sovrinli o'yinni o'z ichiga olganligi bois, ularning har birida 65 tadan sovrin o'ynaladi.

8. G'olibni aniqlash natijalari bo'yicha sovrinlarni topshirish Tashkilotchi tomonidan o'yin g'oliblari e'lon qilingan kundan boshlab 90 (to'qson) kalendar kundan kechiktirmay, bir vaqtning o'zida G'olibdan talab qilinadigan ushbu Qoidalarning 12-bandida ko'rsatilgan barcha ma'lumotlarni Tashkilotchiga taqdim etish bilan birgalikda amalga oshiriladi.

9. Fors-major holatlari (gadgetlarni yetkazib berishdagi qiyinchiliklar, pudratchidan talab qilinadigan modelning yo'qligi va boshqalar) yuzaga kelgan taqdirda, barcha fors-major holatlarni hisobga olgan holda ularni bartaraf etish choralar ko'rildi. O'yinda ishtirok etish uchun emaktab ilovasida ko'rsatilgan telefon raqami karta bog'langan telefon raqamiga mos kelishi kerak. Aksiya ishtirokchilari ro'yxati ijtimoiy tarmoqlar va ANORBANK va eMaktab messenjerlarida e'lon qilinadi. Ular (ishtirokchilar) ma'lumotlari ishtirokchilar ro'yxatida mavjudligini bilish uchun ro'yxatni tekshirishlari kerak. Ro'yxatda o'zini topa olmagan ishtirokchilar yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni hal qilish uchun aloqa markaziga murojaat qilishlari kerak.

Agar Sovrinli o'yin G'olibi Tashkilotchiga ushbu Qoidalarning 12-bandida ko'rsatilgan ma'lumotlarni taqdim etmasa, G'olib g'alaba qozonish huquqini yo'qotadi.

10. Sovrinli o'yinda ishtirok etish shartlari:

Har bir xohlovchi ota-onasi bir vaqtning o'zida lotereyada qatnashish uchun quyidagi shartlarni bajargan holda Sovrinli o'yin ishtirokchisi bo'lishi mumkin:

a) "Anorbank" mobil ilovasining ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchisi bo'lish, "Anorbank" mobil ilovasida ro'yxatdan o'tgan va Sovrinli o'yin o'tkazilayotgan muddat ichida faol bo'lgan Mastercard ANOR BLACK va/yoki Uzcard DUO va/yoki Uzcard Kids bank kartalariga ega bo'lish;

b) sovrinli o'yin davomida **eMaktab** tizimiga ulangan bo'lish;

d) sovrinli o'yin reglamentiga ko'ra, respublikadagi maktablarning **eMaktab** tizimiga ulangan 1-11-sinf o'quvchilari har bir bosqich mobaynida to'plagan "to'rt" va "besh" baholari uchun yaxshi o'qish evaziga turli sovrinlarni yutib olish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Masalan, "4" yoki "5" baho olgan o'quvchi avtomatik ravishda tegishli 4 va 5 ball oladi. Natijada jami 100 ballni 1 kuponga almashtirish mumkin.

Har bir kupon sovrinli o'yinida qatnashish uchun bitta (1) imkoniyatni taqdim etadi, unda g'oliblar tasodifiy raqamlar generatori tomonidan tanlov asosida aniqlanadi. O'quvchilarning kuponlari qancha ko'p bo'lsa, g'alaba qozonish imkoniyatlari shunchalik yuqori bo'ladi.

e) loyiha shartlariga ko'ra, o'quvchilar baho oladilar, ota-onalari esa ularni kuponlarga almashtirib, sovrinli o'yinda qatnashadilar. O'quvchilarning ota-onalari birinchi bosqichda to'plangan ballarni keyinchalik kuponlarga almashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar;

f) ushbu loyiha doirasida ANORBANKdan jismoniy Mastercard ANOR BLACK bank kartalariga ega bo'lgan barcha ota-onalar ballarni kuponlarga avtomatik tarzda almashtirishlari va keng ko'lamli sovrinli o'yinda ishtirok etishlari mumkin. Shu bilan birga, yuqorida qayd etilgan bank kartaga ega bo'lмаган va uni buyurtma qilib sovrinli o'yin muddati tugagunga qadar oladigan ota-onalar ham unda ishtirok etadi.

ANORBANK tomonidan sovrinli o'yin ishtirokchilariga 2023/24-o'quv yili uchun eMaktab platformasi uchun yillik PRO-obunasi taqdim etiladi;

**g) sovrinli o'yinda barcha jismoniy shaxslar, jumladan, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'limgan shaxslar ishtirok etishlari mumkin.**

11. Sovrinli o'yinni o'tkazish va uning G'oliblarini aniqlash tartibi:

Sovrinli o'yinni o'tkazishning butun davri uchun G'oliblarning umumiy soni - 360 (uch yuz oltmish) kishidan iborat.

Sovrinli o'yinni o'tkazishning davrida bir nechta kuponlar mayjud bo'lsa, har bir kupon tegishli bosqichda g'alaba qozonish uchun bitta (1) imkoniyatni taqdim etadi. Har bir yangi bosqichning boshida oldingi kuponlar hisobga olinmaydi.

Sovrinli o'yin G'oliblarini aniqlash uchun Sovrinli o'yin o'tkaziladigan kuni ishtirok etayotgan kuponlarga individual raqamlar (bundan keyin – "ID") beriladi, shuningdek, ushbu "ID"lar "Random" elektron dasturiga (tasodifiy raqamlarni tanlash generatori) yuklanadi.

Sovrinli o'yinni o'tkazish va G'olibni aniqlash quyidagi algoritmidan foydalangan holda "Random" dasturi tomonidan "ID" raqami tanlab olingan Sovrinli o'yin ishtirokchisi Sovrinni qo'lga kiritish huquqiga ega bo'lgan Sovrinli o'yin G'olibi hisoblanadi.

**Sovrinli o'yinni o'tkazish va uning G'oliblarini aniqlash algoritmi bosqichma-bosqich jarayondir:**

a) Sovrinli o'yin G'oliblarini aniqlash uchun Tashkilotchi ma'lumotlar bazasidan "Random" dasturiga ushbu Qoidalarning 10-bandida keltirilgan barcha shartlarni bajargan va Sovrinli o'yinda qatnashish huquqiga ega bo'lgan ishtirokchilarning "ID"lari ro'yxati diapazonini yuklaydi;

b) "ID"lar ro'yxatining diapazoni "Random" dasturiga kiritiladi, dastur esa tasodifiy tanlov orqali G'oliblarning "ID"larini aniqlaydi.

Sovrinli o'yinni o'tkazishda G'olibni aniqlash natijasini oldindan belgilash tartib-qoidalari va algoritmlardan foydalanimaydi.

Sovrinli o'yinining har bir bosqichida ishtirokchilarning "ID"lari ro'yxatining hisoboti (yuklab olingan fayl) dastlabki ma'lumotlar sifatida ishlataladi. Yuqoridaqgi algoritm bo'yicha ushbu ma'lumotlarni qayta ishlaganda, Sovrinli o'yinining har bir G'olibini aniqlash uchun natijada 100 ta (yuz) yutuqli "ID" aniqlanadi.

Ushbu jarayon 100 (yuz) marta amalga oshiriladi, shu bilan birga: 100 ta (yuz) sovrin g'oliblari tasodifiy tarzda aniqlanadi.

12. Sovrinli o'yindan so'ng uning G'oliblariga "Anorbank" mobil ilovasida G'olib deb e'tirof etilgani va Sovrinni yutgani haqida push-bildirishnomasi yuboriladi.

Keyinchalik Sovrinli o'yin G'olibi o'zining jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqamini (JShShIR) Tashkilotchi xodimlariga istalgan qulay usulda taqdim etishi kerak.

Shu bilan G'oliblar ushbu Qoidalarning 6-bandida ko'rsatilgan Sovrinlarni qo'lga kiritadilar.

Sovrin Tashkilotchi tomonidan G'oliblarga ko'rsatilgan hujjatlar (pasport yoki ID karta) taqdim etilgandan so'ng, O'zbekiston Respublikasi hududidagi "ANOR BANK" AJ ofislarida shaxsan topshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga ko'ra, sovrin jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'iga (JShDS) tortiladi.

Tashkilotchi sovrinlarning barcha xarajatlarini, shu jumladan shaxsiy daromad solig'ini to'lashni qoplaydi.

Tashkilotchi istalgan vaqtida "anorbank.uz" manzilidagi Tashkilotchining veb-saytida tegishli ma'lumotlarni joylashtirish orqali ushbu Qoidalarga so'zsiz bir tomonlama o'zgartirish va/yoki qo'shimchalar kiritish huquqini o'zida saqlab qoladi.

13. Sovrinli o'yinda ishtirok etish Ishtirokchining anorbank.uz saytida e'lon qilingan ushbu Qoidalarni to'liq va so'zsiz qabul qilishini, shuningdek, Ishtirokchining Tashkilotchi tomonidan o'tkaziladigan reklama, marketing va boshqa dasturlar va aksiyalar, shuningdek ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirishga qaratilgan tadqiqotlarni o'tkazish, marketing va/yoki statistik va/yoki boshqa tadqiqotlar o'tkazishda ishtirok etishi maqsadida mobil ilovada ro'yxatdan o'tish paytida taqdim etgan shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlashga rozilagini bildiradi.

Tashkilotchi yoki Hamkor turli xil aloqa vositalaridan foydalangan holda Ishtirokchi bilan to'g'ridan-

to'g'ri aloqalarni amalga oshirishi mumkin, shu jumladan (cheklovsiz) pochta jo'natmalari, Ishtirokchining elektron pochta manziliga pochta jo'natish, mobil telefon (SMS-xabarnoma) orqali tegishli ma'lumotlarni jo'natish, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining "Reklama to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, shuningdek Tashkilotchi tomonidan O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarish maqsadida reklama tushunchasiga mos keladigan ma'lumotlarni jo'natish.

Ishtirokchi Sovrinli o'yinda ishtirok etish orqali O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq o'z xohishi va manfaatlarini ko'zlab, Ishtirokchining shaxsiy ma'lumotlariga, shu jumladan, avtomatlashtirish vositalaridan va ma'lumotlar bazasini boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimlaridan, boshqa dasturiy ta'minotdan foydalanish, shuningdek, "ANOR BANK" AJ va uning kontragentlarining ichki tarmog'i orqali uzatilgan Ishtirokchining shaxsiy ma'lumotlarini qo'lda, avtomatlashtirilgan va aralash ishlov berish uchun, shuningdek, Internet tarmog'i orqali va usiz, Tashkilotchiga o'z shaxsiy ma'lumotlarini ishatishga (toplash, hisobga olish, tizimlashtirish, jamlash, saqlash, tasdiqlash, aniqlashtirish, yangilash, o'zgartirish, foydalanish, tarqatish, taqdim etish, o'tkazish (shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi hududiga o'tkazish), tashkilotchi va uning kontragentlari tomonidan shaxssizlashtirish, bloklash va yo'q qilish) o'z rozilagini (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarining shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligini va ularni qayta ishslash jarayonida shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlashga doir talablariga rioya qilgan holda) beradi.

Amaldagi ma'lumotlarni qayta ishhash usullari ma'lumotlar bazasini kerakli mezonlar bo'yicha segmentatsiyalashni o'z ichiga oladi.

Amaldagi qayta ishslash usullari, shu jumladan (cheklovlarsiz), ma'lumotlar bazasini kerakli mezonlarga ko'ra segmentatsiyalashni o'z ichiga oladi. Ushbu rozilik ishtirokchi tomonidan yuqorida ko'rsatilgan maqsadlarga erishish uchun zarur bo'lgan yoki ishtirokchining istalgan shaxsiy ma'lumotlariga, shu jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan holda: familiyasi, ismi, otasining ismi; jinsi; tug'ilgan yili, oyi, sanasi (O'zR qonunchiligidida, xususan, O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksida nazarda tutilgan hollarda — shaxsni tasdiqlovchi hujjatning rekvizitlari (pasport), mobil telefon raqamlari, elektron pochta manzili va boshqa ma'lumotlarga nisbatan har qanday harakatni amalga oshirishga beriladi.

Ishtirokchining shaxsiy ma'lumotlarini ushbu qoidalarga muvofiq qayta ishslashga jalb etiladigan uchinchi shaxslarni tanlash huquqi "ANOR BANK" AJga ishtirokchi tomonidan taqdim etiladi va qo'shimcha kelishuvni talab qilmaydi.

Tashkilotchi tomonidan shaxsiy ma'lumotlarni ishslash O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladi.

14. Aksiyada ishtirok etib, Aksiya g'olibi deb topilgan ishtirokchi Tashkilotchining anorbank.uz manzili bo'yicha saytida, shu jumladan bosma nashrlar, radio va televideniye dasturlari, shuningdek (cheklovlarsiz) Instagram, Youtube, Facebook kabi Internet-ommaviy axborot vositalari va axborotlarni ommaviy tarqatishning boshqa vositalarida o'z ismini, familiyasini, otasining ismini va tasvirlarini (rasmlarini), shuningdek, so'vrin bilan tushirilgan suratlarni joylashtirishga rozilik beradi.

15. Ushbu qoidalarni buzgan taqdirda, tashkilotchi aksiya ishtirokchisini aksiyada ishtirok etishdan so'zsiz chetlatishga haqli. Shu bilan birga, tashkilotchi tegishli ishtirokchiga nisbatan o'z harakatlariga izoh bermaslik huquqiga ega.

16. Aksiya ishtirokchisi (lari) o'zi haqida aniq bo'lмаган va/yoki noto'g'ri ma'lumotlar ko'rsatganligi sababli yuzaga kelishi mumkin bo'lgan har qanday salbiy oqibatlar xavfini to'la hajmda zimmasiga oladi.

17. Ushbu rag'batlantiruvchi tadbirga muvofiq Aksiyani o'tkazish natijasi yakuniy hisoblanadi va sud tartibida e'tirozga uchramaydi.

18. Aksiya ishtirokchisi istalgan vaqtida Aksiya tashkilotchilariga murojaat qilib, Aksiyada ishtirok etishdan voz kechishga haqli.

19. Tashkilotchi Aksiya ishtirokchisi yoki uchinchi shaxsda ushbu aksiya o'tkazilishi munosabati bilan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan birorta va hech qanday xarajatlarni qoplamaydi.

Tashkilotchi telekommunikatsiya va energetika tarmoqlarida uzilishlar, zararli dasturlarning ta'sirlari, shuningdek "ANOR BANK" AJ ning dasturiy va/yoki apparat majmuasidan ruxsatsiz foydalanish va/yoki ishdan chiqarishga qaratilgan uchinchi shaxslarning noinsoflik bilan qilgan xatti-harakatlari oqibatida majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozimlik darajasida bajarmaganlik uchun javobgar bo'lmaydi.

Aksiya Tashkilotchisi, agar biror sababga ko‘ra, ushbu aksiya yoki uning biron bir qismi kompyuter viruslari, nuqsonlar, manipulyatsiya, ruxsatsiz aralashish, soxtalashtirish, texnik muammolar valyuta kursining keskin sakrashi / o‘zgarishi taqdirda sanktsiyalar, va/yoki “ANOR BANK” AJ tomonidan nazorat qilinmaydigan har qanday sababga ko‘ra aksianing bajarilishiga, xavfsizligiga, halolligiga, yaxlitligiga putur yetkazadigan yoki ta’sir qiladigan bo‘lsa, aksiya o‘tkazilishini bir tomonlama bekor qilish yoki to‘xtatib turish huquqiga ega.

20. Tashkilotchi anorbank.uz da tegishli ma’lumotni joylashtirish orqali istalgan vaqtida Ishtirokchini oldindan shaxsan ogohlantirmasdan, mazkur Qoidalarga o‘zgartirish va/yoki qo‘srimchalar kiritish, aksiya o‘tkazilishini to‘xtatish/to‘xtatib turish/bekor qilish huquqini so‘zsiz o‘zida saqlab qoladi.

21. Agar Aksiya G‘olib 15 (kalender) kun ichida Tashkilotchi yoki ijrochi bilan bog‘lanmasa, uning mukofoti bekor qilinadi.